

SURXON DAVLAT QO'RIQXONASI O'SIMLIKLARINING GEOGRAFIK TARQALISHI

Sh.U. Mardonov

DTPI o'qituvchisi

M.A. Mamadiyeva

Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10933595>

Annotatsiya. O'zbekiston qo'riqxonalari ko'p yillik tarixga ega bo'lishiga qaramasdan, yuksak o'simliklarning inventarizatsiyasi Chotqol Biosfera qo'riqxonasi va Nurota davlat qo'riqxonasida amalga oshirilgan xolos. Qolgan 7 ta qo'riqxonalarining florasida haqidagi ma'lumotlar juda ham kam. Jumladan, Surxon davlat qo'riqxonasi ilmiy bo'limining hisobotlarida 140 dan ortiq o'simlik turlarining ro'yxati keltirilgan. Ushbu maqolada Surxon davlat qo'riqxonasining geografik o'rni va o'simliklar qoplami haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Qo'riqxonasi, Kohitang tog' tizmasi, Orol-Payg'ambar, Qizilolma soyi.

GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF PLANTS OF THE SURKHAN STATE RESERVE

Abstract. Despite the fact that the reserves of Uzbekistan have a long history, the inventory of tall plants was carried out only in the Chotkal Biosphere Reserve and the Nurota State Reserve.

There is very little information about the flora of the remaining 7 reserves. In particular, the reports of the scientific department of the Surkhan State Reserve list more than 140 plant species. This article provides brief information about the geographical location and vegetation cover of the Surkhan State Reserve.

Key words: Reserve, Kohitang mountain range, Arol-Payg'ambar, Kyzylolma stream.

ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ РАСПРОСТРАНЕНИЕ РАСТЕНИЙ СУРХАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ЗАПОВЕДНИКА

Аннотация. Несмотря на многолетнюю историю заповедников Узбекистана, инвентаризация высокорослых растений проводилась только в Чоткальском биосферном заповеднике и Нуратинском государственном заповеднике. О флоре остальных семи заповедников сведений очень мало. В частности, в отчетах научного отдела Сурханского государственного заповедника перечислено более 140 видов растений. В статье приведены краткие сведения о географическом положении и растительном покрове Сурханского государственного заповедника.

Ключевые слова: заповедник, горный массив Кохитанг, Арол-Пайгамбар, ручей Кызылолма.

Qo'riqxonalar tabiiy ekosistemalarni muhofaza etishning eng takomil shakllaridan biri bo'lib, turli yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar va xilma-xil ekotizimlarning monitoringi olib boriladigan poligon sifatida ajralib turishi lozim. Flora va o'simliklar qoplami har bir biotaning muhim bo'lagi sifatida esa alohida e'tiborga olinishi talab etiladi. Muhofaza etiladigan hududlardagi taksonomik birliklarning inventarizatsiyasi jumladan, yuksak gulli o'simliklar tur tarkibining aniqlanishi olib borilishi zarur bo'lgan barcha tadqiqotlarning zamini bo'ladi.

Surxon davlat qo'riqxonasi 1986 yil 8 sentyabrda tashkil etilgan. U "Orol-Payg'ambar" va "Ko'hitang" bo'limlaridan iborat. Umumiy maydoni 27676 ga ni tashkil etadi.

"Orol-payg'ambar" bo'limi 19 yilda mustaqil qo'riqxonasi sifatida O'zbekiston va Afg'oniston davlat chegarasi hisoblangan Amudaryo bo'yida tashkil etilgan. Maydoni 3093 ga.

Bu erda asosan to'qayzor o'rmonlar va unda yashaydigan hayvonlar muhofaza qilinadi. 1986 yilda "Orol-payg'ambar" bo'limi Surxon davlat qo'riqxonasi tarkibiga kiritilgan. Keyingi 15-20 yil ichida bu erda murakkab va notinch chegaraviy sharoit tufayli "Orol-Payg'ambar" bo'limi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan qo'riqxonasi tasarrufidan chiqarilgan hamda Davlat chegarasini qo'riqlash Qo'mitasiga berilgan.

Qo'riqxonaning "Ko'hitang" bo'limi Ko'hitang tog' tizmasining sharqiy yonbag'rida tashkil etilgan. Bu erda asosan tog'-o'rmon ekotizimi hamda noyob o'simlik va hayvon turlari muhofaza qilinadi. Umumiy maydoni 24554 ga.

Surxon qo'riqxonasining florasini Janubi-G'arbiy Hisor okrugi florasining 40,3 % ni, Ko'hitang tizmasining 74,7 % ni tashkil etadi. Bu qo'riqxonasi florasini Janubi-G'arbiy Hisor okrugining o'ziga xos maydonlaridan biri va Ko'hitang tizmasi umumiy florasiga nisbatan representativ xarakterga ega ekanligini namoyon etadi.

1982 yilda I.G. Levichev Ko'hitang tizmasining sharqiy yonbag'rida joylashgan Qizilolma soyining yuqori qismi, dengiz sathidan 2900 m balandlikdan, qorga yaqin bo'lgan joydan Gagea turkumiga mansub yangi Gagea nabievii Levichev turini topadi va fanga kiritadi [1].



Eremurus robustus Regel- Bog'lidara bo'limi

Tadqiq etilgan hududda olib borilgan geobotanik tadqiqotlardan eng salmoqlilaridan biri sifatida F.O. Xasanovning izlanishlarini keltirish mumkin. Tadqiqotchi tomonidan 1982-1987 yillar davomida tizmaning daraxt va butazorlari o'rganilgan. Bu ishlarida Ko'hitang tizmasining florasini bo'yicha qisqacha ocherk [2], shiblyak tipining asosiy formasiyalari va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati borasidagi qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Ko'hitang tizmasi doirasida shiblyak tipining floristik boyligi 55 oila, 269 turkumga mansub 578 tur o'simliklar bilan

baholanishini keltirgan [3]. Ushbu tadqiqot natijalari hozirgacha olib borilgan floristik va geobotanik izlanishlar orasida salohiyatli o‘rin egallab kelmoqda. Surxon davlat qo‘riqxonasi hududida *Acantholimon majevianum* Regel, *Allium ecornutum*, Maltzev, *Allium kuhgitangi*, *Astragalus plumbeus*, *Echinops multicaulis*, *Ferula nevskii*, *Jurinea tapetodes* kabi noyob turlar uchraydi.

REFERENCES

1. Ботанические материалы гербария института Ботаники Академии наук Узбекской ССР. – Ташкент: ФАН, 1982. Вып. 20. –С. 25-26.
2. Хасанов Ф.О. Краткий очерк растительности Кугитанга // Тез. докл. юбил. науч. конф. молодых ученых и спец-тов посев 60-летию ЛКСМ Узб-на, 1985. – С. 167-168.
3. Хасанов Ф. О. Ксерофильная древесно-кустарниковая растительность Кугитанг-тау: Автореф. дис... канд. биол. наук. – Ташкент, 1987.– 20 с.
4. M.A.Xalmuratov.,D.G` .Sodiqova.,M.K.Hamroyeva.,A.A.Ergashev.,A.X.Mammadiyev “Botanika tadqiqot usullari” fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanma// Toshkent, 2023.88-101b.